

ASQAR MAHKAM SHE'RIYATIDA ISHQ MAVZUSI

*Baxtiyorova Gulshoda Jo'rabek qizi,
Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti
talabasi*

THE THEME OF LOVE IN THE POETRY OF ASKAR MAHKAM

*Bakhtiyorova Gulshoda Jurabekovna,
student of Philology and art faculty of Urgench state university*
ТЕМА ЛЮБВИ В ПОЭЗИИ АСКАРА МАХКАМА

*Бахтиёрова Гулшода Журабековна,
Студентка факультета Филологии и искусства
Ургенчского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0006-6001-0325>

gulshodabaxtiyorova06@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz adabiyot an'analarini davom ettirgan shoir Askar Mahkamning g'azalnavislik mahorati "O'rtadi Ishq, Ishq" g'azali tahlili asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Askar Mahkam, g'azal, ishq, qofiya, radif, mavzu, tasavvuf, g'oya.

Abstract: This article argues that the ghazal writing skills of the poet Askar Mahkam, who continued the traditions of classical literature, are based on an analysis of the ghazal "O'rtadi Ishq, Ishq".

Key words: Askar Mahkam, ghazal, love, rhyme, rhyming, theme, sufism, idea.

Аннотация: В данной статье на основе анализа газели "O'rtadi Ishq, Ishq" доказывається газельное писательское мастерство поэта Аскар Махкама, продолжавшего традиции классической литературы.

Ключевые слова: Аскар Махкам, газель, любовь, рифма, тема, суфизм, идея.

Mumtoz adabiyotning lirik janrlaridan biri bo'lgan g'azal dastlab arab adabiyotida paydo bo'lgan, undan so'ng esa fors-tojik ijodkorlarining ijodidan ham joy olgan. Ulardan turkiy adabiyotga o'tgan. G'azal so'zi arabcha bo'lib, "ayollarga xushomad" degan ma'noni anglatadi. Chindan ham, bu janr paydo bo'lganidan keyin oshiqlar g'azal yozib, aytib, unda ma'shuqalarining go'zalligi, latofati, yoqimli fe'lini maqtaganlar. Keyinchalik janr taraqqiyoti davomida faqatgina oshiqona emas, balki yangi mavzulardagi g'azallar ham bitilgan. Jumladan, ular ilohiy ishq, peyzaj, tabiat tasviri, pand-nasihat, xalqning ijtimoiy ahvolini tasvirlab beruvchi bo'lgan. Zamonaviy adabiyotda esa G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov va boshqa shoirlar g'azal janrida qalam tebratganlar. Shu qatorda, Askar Mahkam ham bu janrning go'zal namunalarini kitobxonlarga havola

qilgan. Uning "Vido de", "Qayoqda?", "Xush qoling", "Meni yod et", "O'rtadi Ishq, Ishq" kabi g'azallari mumtoz adabiyot namunalaridan har jihatdan qolishmaydi. Ular, asosan, tasavvufiy yo'nalishda yozilgan. Ijodkorning "O'rtadi Ishq, Ishq" radifli g'azalini tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo, g'azal tasavvufiy mazmunga ega bo'lib, ilohiy ishq kuylangan ijod namunalaridan biri. 12 baytdan iborat. Vazni - hazaji musammani solim. Radifi - "o'rtadi Ishq, Ishq", uch so'zdan iborat. G'azaldagi qofiyadosh so'zlar: qonim, imonim, zabonim, tovonim, ustixonim, osmonim, onim, nishonim, xonumonim, yomonim, lomakonim, oshiyonim so'zlari.

Buyuk bir jon edim, jon-u jahonim o'rtadi Ishq, Ishq,
So'ngaklar sirqirab singayki, qonim o'rtadi Ishq, Ishq¹.

¹ Askar Mahkam. Bu ishq edi. _Toshkent, 2017. 44-b.

Ushbu baytda shoir ta'dil va takror she'riy san'atlaridan foydalangan. Birinchi misrada lirik qahramon o'zini "buyuk bir jon" deya ta'riflaydi. Tasavvuf ta'limotidan xabardor bo'lmagan holatimizda bu manmanlikni ifodalaydi, degan fikrda bo'lishimiz mumkin edi. Lekin unday emas. Tasavvufda dunyodagi barcha mavjudotda: insonda, hayvonda, o'simliklarda, kundalik hayotimizda biz ko'rgan-bilgan narsalarimizda Yaratganning ma'lum bir jihati jamlangan, ya'ni Alloh butun olamni ko'zgusi sifatida yaratgan. Jumladan, insonlar ham shunday xususiyatga ega. Inson tanasiga ruhni Alloh bergan. Tasavvuf adabiyotining namoyondalaridan biri bo'lgan Mansur Halloj haqidagi rivoyatlarga e'tibor bersak, u o'zining "Men Haqman" — "Ana al-Haq" degan so'zi uchun dorga osilganini esga olamiz. Aslida shunda Mansur Halloj bu gapi bilan yuqoridagi fikrni aytmoqchi bo'lgan, ya'ni menda ham buyuk Zotning bir parchasi bor, demoqchi bo'lgan. Asqar Mahkam ham "buyuk bir jon" deganda shuni nazarda tutmoqda. Lirik qahramon shunday buyuk jon, lekin baribir bu jonni Ishq o'rtayveradi, bu jahonni unga tor qiladi. Uning ishq shunday kuchliki, ilohiy ishq uning suyaklariga, qoniga qadar o'tgan. Bu holat Allohni va Uning qudratini anglab yetgan insondagina ro'y beradi. Bunday insonlar xoslar yoki xoslarning xosi deb aytilgan. Buni yetarlicha anglab yetmagan qatlam esa avom deyilgan. Demak, lirik qahramon yuqori qatlamga kiradi.

*Qilichlar tig'ida qon o'rnida chahchahladi bulbul,
Yonib jon xokidan aql-u iymonim o'rtadi Ishq,
Ishq.*²

Tabiatdagi barcha mavjudotlar har onda Allohning nomi aytib, zikr qiladi. Faqat ba'zi insonlarga bu ishni qilmaydi. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni muqaddima qismida berilgan "Uch ko'ngil hayrati" bobida ko'ngilning birinchi hayrati ham shu sababdan bo'lgan. Ya'ni ko'ngil yerni qalb ko'zi ochiq tarzda aylanib chiqadi. E'tibor bersa, tabiatdagi barcha narsa o'z vazifasini bajarish asnosida doimo Allohni zikr qiladi. Suvning sharqirashida, barglarning shitirlashida, qushlarning sayrashida Allohning zikri yangraydi va ko'ngil hayratga tushib, o'zining zikr qilmasligidan uyaladi. Yuqoridagi parchada

ham tabiatning bir parchasi bo'lmish qon ham qilich tig'ida bulbul misol zikr aytib turadi. Faqat bu oddiy insonning emas, ilohiy ishqdan mast bo'lgan insonning qoni edi. Ikkinchi misrada esa odamlarning tuproqdan yaratilganligiga ishora mavjud. Oshiqning ishq shunday ishqki, tuproqdan bo'lgan tanasidan olov misoli yonib chiqib, aqlini, iymonini o'rtaydi. Bu ishqning siriga aql yechim topolmaydi. Imon har bir qilmishini qayta-qayta vijdon tarozisida tortib ko'radi. Baytda tanosub, ta'dil va takrir san'atlaridan foydalanilgan.

*Tiriklik qissasin bir so'z ila men doston qildim,
Suxanpardoz, tazarru qil, zabonim o'rtadi Ishq,
Ishq.*³

Baytda nido, tanosub, amr va naxiy, takrir san'atlaridan foydalanilgan. Lirik qahramon ilohiy ishqni, tiriklikning asosiy mazmunini "bir so'z ila doston qildim", deydi. Chunki u Ishqning ta'rifi uchun bir doston ham bir so'zdek oz, kamlik qiladi. Keyin "suxanpardoz" — so'zini bezovchiga murojaat qiladi va tazarru qilishi lozimligini ta'kidlaydi. Chunki Ishq zabonni - tilni ham o'rtaydi.

*Manim sayyora umrim yo'llarin sitoralar aytsin,
Ki har qayga oyoq qo'ydim tovonim o'rtadi Ishq,
Ishq.*

Ushbu baytda umrni sayyora, ya'ni bir yerda turmaydigan yulduz deya ta'riflaydi. Haqiqatdan ham umr bir joyda turmaydi. Vaqt ayovsiz tarzda bizni ortda qoldirib, o'zi oldinda ketaveradi. Hatto uch yil oldingi umrimizni bir kun oldingidek tasavvur qilamiz. Uch yil qanday o'tganini, umr qanday o'tganini bilmay qolamiz. Lirik qahramon uning ana shu sayyora umrining qanday o'tganini yulduzlar ham bilganini aytadi. Uning umr yo'llarida bosgan har bir qadamida Ishq tovonini o'rtaydi Allohga bo'lgan ishq doim uning doim hamrohi bo'ladi. Shoir baytda tashbeh, tajnis, tanosub va takrir she'riy san'atlaridan foydalangan. *Dema Farhod-u Majnun o'tdi olam doridan butkul, Hayotim o'rtadi, har lahza-onim o'rtadi Ishq, Ishq.*⁴

Asqar Mahkam ushbu baytda Farhod va Majnun nomlarini keltirish orqali talmeh san'atining namunasini beradi. Birinchi misrada shoir ishqning Majnunlikidan ham, Farhodnikidan ham

² Asqar Mahkam. Bu ishq edi. _Toshkent, 2017. 44-b.

³ Asqar Mahkam. Bu ishq edi. _Toshkent, 2017. 44-b.

⁴ Asqar Mahkam. Bu ishq edi. _Toshkent, 2017. 45-b.

kuchli ekanligini aytadi. Olamni esa “dor” deya ta’riflaydi. Dunyodan muhabbat dashtidan qancha buyuk, jafokashlar o’tdi deb o’ylamang, mening ishqim ularnikidan ham hadsizdir, degan mazmundagi fikrlarni bildiradi. Bu ishq lirik qahramonning butun bir umrini kuydiradi, har lahasini, har onini, har nafasini o’rtaydi. Ilohiy ishq kirib borgan qalb doim Allohning ishq bilan yonib turadi. Hatto ovozi butun jahonga yoyilgan, ishq ko’yida sarson bo’lgan doston qahramonlarining ishq ham bu ishqqa tenglasha olmaydi. Shoir baytda talmeh she’riy san’atidan tashqari amr va nahiyni ham qo’llaydi. Buni “dema” buyruq maylidagi fe’l asosida yuzaga keltiradi. Ikkinchi misra oxirida “Ishq” so’zini ketma-ket ikki marta qo’llaydi va takrir san’atidan foydalanadi.

G’azalning yana bir misrasida shoir u haqida gapirmoqchi bo’lgan odam shuni ham bilishi kerak-ki, uning oxiri ham, avvali ham ishq bo’lgan, bor-yo’g’ini ilohiy ishq o’rtagan:

*Men odamzoda naslin kim bayon aylar esa bilsin,
Ki avval-oxirim - Ishq, xonumonim o’rtadi Ishq,
Ishq.*⁵

Baytda ijodkor birinchi misrada “bilsin” buyruq maylidagi fe’lni qo’llash orqali amr va nahi, ikkinchi misrada “avval” va “oxir” so’zlarini keltirib tazod she’riy san’atini qo’llagan.

*Kim erdi komil ul sahva ayladi, Ishq - bu xatolig’dir,
Xatoyim o’rtadi, yaxshi-yomonim o’rtadi Ishq,
Ishq.*⁶

Yuqoridagi misralarda Asqar Mahkam kim komil bo’lgan bo’lsa, u xato qilishini, Ishqning o’zi xatolik ekanligini aytadi. Xo’sh, ishqning nimasi xatolik? Buning ustiga baytda Allohga nisbatan ishq, ya’ni ilohiy ishq nazarda tutilgan. Bunday ishq kimlar uchun xatolik? Bu savolning javobini o’ylab ko’rsak, misralar mazmunini anglagandek bo’lamiz. Albatta, ishqni xato ish deb qabul qiluvchilar ruhiy-ma’naviy olamdan uzilib, moddiy olamga bog’lanib qolganlar, o’z nafsini jilovlay olmaydigan kimsalardir. Ishq ahlining chekkan

riyozatlari, amallari, jazbalari, umidlari va taqvolari bundaylar uchun devonalikday tuyiladi. Hozirgi kunda ham bunday insonlarni atrofimizda uchratishimiz mumkin. Andishaning otini qo’rqoq qo’yadiganlar, birovga yomonlik qilganidan keyin shu zulm qilgan kishidan o’zi ham yomonlik ko’rmasa, jabr ko’rganni jur’atsiz va qo’rqoq deb biladiganlar ham shular jumlasidandir. Lekin yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarmagan inson, aslida, Allohning roziligi uchun zulm qilmagan bo’ladi, ya’ni uning qalbidagi Yaratganga nisbatan muhabbat bo’ladi. Ishq insonlarni ezgulikka chorlaydi. U tufayli inson o’zining xatolarini, yaxshiliklari-yu yomonliklarini taftish qiladi. Baytda she’riy san’atlarning qo’llanilishi masalasiga kelsak, “xatolig’dir” va “xatoyim” o’zakdosh so’zlarining bir baytda kelishi ishtiyoq, “O’rtadi” va “Ishq” so’zlarining takrorlanishi ikki o’rinda takrir, “yaxshi” va “yomon” so’zlari tazod she’riy san’atini yuzaga keltirgan. Baytda “sahva” so’zi arabcha so’z bo’lib, xato degan ma’noni bildiradi.

Asqar Mahkam o’zining tasavvufiy ruhdagi g’azallari bilan yangi davrda tasavvuf adabiyotini davom ettirdi, desak, aslo mubolag’a bo’lmaydi. Ulardagi ilohiy ishqni madh etuvchi baytlar Yassaviy va Rumi she’riyatini esimizga soladi. Ijodkor ruhiyatimizni larzaga soladigan bo’yoqlardan foydalanib haqiqiy kuchli ishq bu ilohiy ishq ekanligini mahorat bilan badiiy tarzda qog’ozga to’kkan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -Toshkent, 2018-y
2. Asqar Mahkam. Bu ishq edi. -Toshkent, 2017-y
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. -Toshkent, 1999-y.
4. Komilov N. Tasavvuf. -Toshkent, 2009-y.
5. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetika asoslari. -Toshkent, 2019-y.
6. Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug’ati. -Toshkent, 1972-y.



⁵ Asqar Mahkam. Bu ishq edi. -Toshkent, 2017. 45-b.

⁶ Asqar Mahkam. Bu ishq edi. -Toshkent, 2017. 45-b.